



## YURIDIK FAOLIYATDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

*Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil-sudov fakulteti 1-kurs VI guruh talabasi Safarova Zebiniso*  
[zebiniso2401@gmail.com](mailto:zebiniso2401@gmail.com)

**Annotatsiya.** Yuridik sohada bulutli texnologiyalar juda muhim o‘rin tutadi. Ular hujjatlarni boshqarish, shaxsiy ma’lumotlarni nazorat qilish, ularni almashish va insoniyat bilan muloqot jarayonlarini ma’lum darajada soddalashtirish imkonini beradi. Bulutli texnologiyalarning afzalliklari sirasiga: vaqtni tejash, samarali usuldan foydalanish, xarajatlarni kamaytirish, xorijiy yuridik firmalardan na’mana olib, yuridik sohani yanada rivojlantirish kabilar kiradi. Ammo xavfsizlik, internet bilan bog‘liqlik va shunga o‘xshash kamchiliklari yetarlicha tahlil qilingan. Bundan tashqari, uning kelajakdagi istiqbollari, zamonaviy turmush tarziga ta’siri va O‘zbekiston Respublikasida uning ahamiyati va uni yanada samaraliroq qo‘llash texnikalari haqida tavsiyalar berib o‘tilgan. Bulutli texnologiyalarni yuridik faoliyatda amaliy qo‘llash haqida ham ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** yuridik soha, bulutli hisoblash, IaaS, PaaS, SaaS, afzalliklari, kamchiliklari, xarajat, internet, maxfiylik, hamkorlik, qulaylik, yuridik sohada ta’siri, O‘zbekiston, insoniyat.

### **Kirish.**

Bugungi zamonalashayotgan hayotni texnologiyalarsiz tasavvur qilish ancha murakkab. Har bir sohada ular muhim ahamiyat kasb etadi va rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shadi. Bu texnologiyalar yuridik faoliyatni ham chetlab o‘tmadi. Ya’ni bular yuridik va jismoniy shaxslar bilan aloqani yanada kuchaytirishga imkon bermoqda. Har bir shaxs dunyoga kelibdiki, o‘zing huquqlari va majburiyatlari mavjud va ularni himoya qilish esa aynan yuridik soha vakillariga tegishlidir. Shu sababli, bulutli texnologiyalar ularning huquqlarini va shaxsiy ma’lumotlarini nazorat qilishda shuningdek, ish jarayonini tezlashtirishda zimdan ko‘maklashadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangani sari yuridik faoliyat ham tubdan takomillashmoqda. Bulutli hisoblash yuridik xizmatlar ko‘rsatish jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu



texnologiyalar hujjatlarni va ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va almashish imkoniyatini bergani kabi shu bilan birga yangi muammolar, xavf-xatarlar ham keltirib chiqarmoqda.

## **Bulutli texnologiyalarning yaratilishi va turlari.**

Bulutli texnologiya bu o'zi nima? Bulutli texnologiya - ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib "cloud computing" degan ma'noni bildiradi va asosan rus, ingliz manbarida keng qo'llaniladi. O'zbek tilida bu atama T.N. Nishonboyevning "Sevisga yo'naltirilgan arxitektura" monografiyasida ham ko'p marotaba ishlatilgan. Bulutli texnologiyalar bu - internet foydalanuvchilar uchun kompyuter resurslarini taqdim etadigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari hisoblanadi. Bulutli texnologiyalar ba'zi joylarda "bulutli hisoblash" deb ham qo'llaniladi. Bulutli hisoblash 2000-yillarning oxirida hisoblash resurslaridan foydalanish o'z rivojini topganligiga hech qanday shubha yo'q. Shuningdek, 2008-yilda bu texnologiya so'zi butun dunyo bo'ylab keng tarqaldi.

Bugungi kunda "Bulutli hisoblash" yuridik tarmoqlarda va huquq sohasida keng foydalanila boshlandi, xususan O'zbekiston hududi ham taraqqiy etish jarayonida va u jadal tarzda rivojlanib bormoqda. Bunga ko'ra: Yuridik faoliyatda bulutli texnologiyalari tarmoqlarida my.sud.uz, lex.uz, my.gov.uz, Norma.uz va boshqa ko'plab yirik sohalarda o'zlarining bulutli xizmatlar spektrini kengaytirishga katta e'tibor qaratishmoqda va ulardan foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratilgan bo'lib istaldan vaqtda bulutdan o'zlariga tegishi bo'lgan ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega. Shunday xizmatlarning qulayligi tufayli ularning iste'molchilari soni ham ortib bormoqda. Bulutni ta'minlab beruvchilar esa o'z xizmatlarini taqdim etishda quyidagilarni maqsad qilib qo'yadi:

- Tarmoqning doimiy harakatda bo'lishini ta'minlash, ayniqsa siyosiy vaziyatlarda
- QoSni (tarmoq ishlashini boshqarish va yashilash uchun foydalaniladigan vositalar va usullar to'plami) ta'minlash va boshqalar.

Hozirgi kunda jahonning ko'plar joylarida foydalanilgani kabi O'zbekiston hududida ham bulutli texnologiyalar qo'llashni boshlagan ammo yuridik faoliyatda boshqa mamlakatlardak rivojlangan bo'lmasada, hujjatlarni saqlash borasida kengroq foydalanilmoqda. O'zbekistonda "O'zbektelecom" AK "UZCLOUD" ma'lumotlarni ishlash markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu faoliyat Islom Rarimovning 2015-yil 6-martdagi "2015-2019 yillarda yo'l-transport infratuzilmasini va muxandislik kommunikatsiyalarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish dasturi to'g'risida" dagi PQ-2313 son Qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Axborot kommunikatsiya



texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar tog‘risida’gi qaroriga muvofiq ishga tushirilgan. Shu loyiha asosida ActivePlatform dasturi ishlab chiqilgan. ActivePlatform dasturi nafaqat yuridik sohada, balki boshqa sohalarda ham yangi ilg‘or tajribalar asosida ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish uchun mo‘jallangan yagona dastur hisoblanadi. Bulutli texnologiyalarning asosiy turlari mavjud:

- IaaS ( infrastructure as a Service) – butun tarmoq infratuzilmani uzoq serverlarda joylashtirish mumkin. Bu ilova yoki ma’lumotlar uchun virtual mashinalar va saqlash joyini o‘z ichiga oladi. Bu tizim kamroq vaqt talab qiladigan o‘z server imkoniyatlarini takomillashtirishdan ko‘ra ancha tejamkor usuldir. Bu usuldan ko‘roq fuqarolar bilan ishlaydigan yuristlar uchun qulaydir.
- PaaS ( platform as a Service) –Bu servisning asosiy maqsadi – boshlang‘ich bosqichdan masshtablashtirishgacha bo‘lgan jarayonni osonlashtirishga xizmat qiladi va xizmatlarni litsenziyalash uchun ham ko‘maklashadi va bu orqali foydalanuvchilarning ishi birmuncha yengilashadi.
- SaaS ( software as a Service) – Bulutli hisoblashning eng so‘ngi tur bo‘lib, uning keng tarqalgan ilovasi Netflix va uning abonentlari oylik to‘lov evaziga internet tarmog‘i orqali kirish imkoniyatiga ega. Bu servis tayyor ishlab chiqilgan dasturlarni xizmat shaklida taqdim etadi. Shu kabi Claude ham bunga misol bo‘la oladi, undan istalgancha huquqiy bilimlar olish mumkin va bu shaxslar uchun huquqiy salohiyatini oshirib, davlat ishlarida faol qatnashish imkonini beradi.
- Bulutli texnologiyalarning shu uch turi masofaviy serverlar bilan ishlashning hamyonbopligi, integratsiyalarning qulayligi, yuridik xizmatlarning sifatliiligi va ishonchliligi samaradorlik darajasini aks ettiradi.

## **Yuridik faoliyatda bulutli texnologiyalarning afzalliklari.**

Hozirgi kunda yuridik faoliyatni bulutli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Negaki, ko‘plab shaxslardan shikoyat qilish, o‘zlari tog‘risida ma’lumot saqlash, davlatning rivojlashi uchun takliflar berish aynan online platforma orqali bo‘lganligi maqsadga muvofiq. Bulutli texnologiyalarning barcha sohalarda afzallik tomonlari mavjud. Ular ishlarni osonlashtirishda muhim o‘rin kasb etadi. Bulutli texnologiyaning dorzarb ahamiyatga egaligi shundan dalolat beradiki: ” U fan ixtisoslik fanlar turkumiga kirib, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti AKT sohasida 3-kurs bakalavriat ta’lim



yo‘nalishlarida o‘qitiladi.”<sup>1</sup> Ammo boshqa sohalardan ko‘ra eng foydali va samarali bo‘ladigan yuridik faoliyatda ham kuchaytirish asosiy masala bo‘lib qolmoqda. Shu sababli yuridik soha vakillari uchun ham shu qo‘llanma asosida ishlash zarur.

**Uning komyuter sohasidagi o‘z o‘rni.** Taraqqiyot topgan bugungi kunda kompyuterlarda kuchli tezlikda ishlashi va xotirasining katta bo‘lishi shart emas chunki foydalanuvchilar va yuridik soha egalari barcha ma‘lumot va dasturlarni bulutli servisdan saqlashadi.

“ Iste‘molchilar uchun komyuterlarni ishlash sifati oshishi iste‘molchilar komyuter dasturlar, fayllarni masofadan turib ishga tushirishda kam yukli qilish uchun kam ilovalardan foydalanishlari kerak. Panda Cloud Antivirus-antivirus dasturi, web-servis sifatida foydalana olishlari mumkin.”<sup>2</sup> Ya‘ni bundan ko‘rinib turibdiki, bu dasturlardan foydalangan holda masofadan turib viruslarni tozalashga imkon yaratib beradi va maxfiy ma‘lumotlarning xavfsizliklarini ta‘minlashga ko‘maklashadi.

**Xarajatlarni va vaqtni ma‘lum darajada tejash.** Bulutli texnologiyalar yuridik firmalarga IT infratuzilmalarida katta miqdorda xarajat miqdorini tejashga imkon yaratib beradi. Masalan: kichik-kichik kompaniyalar: yakka tartibdagi advokatlik tashkilotlari server sotib olish, uni o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatish o‘rniga, ular faqat o‘zlari foydalangan resurslari uchun to‘laydilar xolos. Bundan foydalanadigan tashkilotlar dasturiy ta‘minotni saqlashda pulni tejashlari mumkin va bu davlat budjetini boshqa sohalarga e‘tibor berish uchun imkon yaratadi. Bulutli xizmatlar orqali foydalanuvchilar o‘zlarining ma‘lumotlariga internet yordamida tez va samarali kirishlari mumkin. “One of the benefits of cloud computing is the programs requiring storage and processing power running off-site offering low maintenance more economical benefits. Using serves as cluster to maintain cloud computing offers better reliability compared to traditional computing. For example, in clustered environment , if one cloud computing resource fails, transaction can be carried over using other cloud computing resource without disruption. It makes cloud computing more beneficial than traditional computing.”<sup>3</sup> Sether Ayob aytadiku, bulutli hisoblash bu saqlash va qayta ishlash dasturidir ya‘ni kalsterli muhitda, agar bitta bulutli hisoblash resursi ishlamay qolsa, boshqa bulutli hisoblash manbayi yordamida uzulishlarsiz ma‘lumotni o‘tkazish mumkin va bu an‘anaviy hisoblash dasturidan ancha samaraliroq usul hisoblanadi. Yuridik sohada ham aynan shu usulni qo‘llash nafaqat fuqarolarga balki butun jamiyatga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi va ular o‘z muammolarini hal qilish uchun uzoq muddat navbatda turishmaydi, muammolari birmuncha yengillashadi.

<sup>1</sup> Delov.T.E. Bulutli texnologiyalar.-Toshkent: O‘zbekiston, 2020.-217 b

<sup>2</sup> Delov.T.E. Bulutli texnologiyalar.- Toshkent: O‘zbekiston, 2020.- 217 b

<sup>3</sup> Sether Ayob. Cloud computing benefits.// SSRN electronic journal.No3. -2016.- P-13.



Bulutli hisoblash veb-saytga asoslangan holda foydalanuvchilarga tizimning asosiy qismini o'z komputorida saqlamasdan tizimning barcha xususiyatlari va fayllarida kirish imkonini beradi. Darhaqiqat, ko'pchilik insonlar allaqachon o'zlari bilishmagan holda bulutga asoslangan xizmatlardan foydalanishadi. Telegram, Instagram, Facebook, Gmail, Google Drive, Lex.uz, My gov.uz ham bulutga asoslangan ilovalardir. Foydalanuvchilar o'zlariga tegishi bolgan ma'lumotlarni shu ilovada saqlashlari mumkin. Ammo shaxsiy ma'lumotlarni ba'zi ilovalarda saqlab bo'lmaydi, chunki xafsizlik darajasi yuqori bo'lmagani boisi ko'plab huquqbuzaliklar sodir etilishi mumkin.

**Hamkorlikning kuchayishi va fiklar almashinuvi.** Shubhasiz, hamkorlikni ta'minlash uchun bulutli hisoblash ilovalari muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalarning nazarda tutadigan asosiy jihati ham shunda. Qachonki siz boshqa yuridik kompaniyalar yoki insonlar bilan hamkorlikni o'rnatangiz ma'lumotlar va hujjatlar almashinuvi ham shu asosda bo'ladi. Bulutli texnologiyalar esa bu jarayonni soddalashtirishga ko'maklashadi. Jamoa a'zolari informatsiyalarni bulutga asoslangan platformada osongina va xavfsiz ko'rishlari va almashishlari mumkin. Ijtimoiy axborot vositalari orqali ulardan foydalanuvchilar turli xil davrlardan do'stlar orttirish, ulardan huquqiy bilimlarni oshirish, boshqa davlatlarning yuridik faoliyatini taqqoslash va hamkorlik qilish imkoniyatiga ega. Buning natijasida, ularda yangi g'oyalar, tajribalar samaradorlik usullari paydo bo'ladi va davlatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

**Falokatlarni oldini olish.** Albatta yuridik sohaning muvaffaqiyatiga hissa qo'shadigan omillardan biri bu nazoratni amalga oshirishdir. Afsuski, qanchalik nazorat kuchli bo'lishidan qat'iy nazar, kichik miqdordagi samarasiz noozliklar bo'lishi mumkin va bu ham salbiy ta'sir ko'rsatadi: xizmatdagi uzulishlar, ma'lumot va hujjatlarning o'chib ketishi. Bunday falokatlarning oldini olishning oldindan ko'rishni imkoni bo'masada, ma'lumotlarni tiklashni tezlashtirish mumkin. Bulutli hisoblash falokatlardan tortib, elektr uzulishidagi barcha turdagi favqulodda vaziyatlar uchun tezkor informatsiyalarni tiklashni ta'minlaydi. Agar tashkilot yoki kompaniya bulutli hisoblash yechimiga sarmoya kiritmasa va muammoga duch kelsa, ma'lumotlarni butunlay yo'qotish mumkin. Bu komputerdagi viruslar, eski qurilmalar yoki yosh kadrlar tomonidan xatoga yo'l qo'yish orqali amalga oshiriladi va albatta buning oqibatida qurilmalar ichidagi ma'lumotlar ko'chirishi va o'g'irlanishi mumkin. Misol uchun yirik aeroportlarda, xususan Amerikaning top 5ta aeroportlarida haftasiga 10 000 dan ortiq noutbuklar yo'qolishi aniqlangan. Bu jarayon insonlarning shaxsiy daxlsizlik huquqini buzgan hisoblanadi. Bulutga asoslangan serverlar yordamida esa o'zingizga tegishli ma'lumotlarni internetga ulangan holda osongina olish, jo'natish mumkin bo'lib qoladi, hattoki muntazam foydalanayotgan kompyuter ishlamayotgan bo'lsa ham.

**Hujjatlar bilan ishlashni yanada yaxshilash, osonlashtirish.** Bu jarayonda bulutli texnologiyalar yordamga keladi. U hujjatlarni qabul qilish, tahrirlash,



ko‘rishni osonlashtiradi. Misol uchun: biror bir qonun, farmon yoki qaror qabul qilindi, uni ommaga e‘lon qilish uchun gazeta, jurnallarda emas, baki online platformada yuklashsa ham vaqtni tejashadi, ham daraxtlarga ortiqcha zarar yetkazishmaydi. Bu barcha uchun qulay va samarali yo‘l. Yoki deylik, qonun va qonunosti hujjatga o‘zgartirish kiritildi, bu vaqtda shu hududda yashaydigan insonlar online tarzda ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. An‘anaviy shakldan ko‘ra bulutli hisobdan foydalanish (zamonaviy usul) davlatning rivojlashish belgisi. Yuristlar uchun ham bu ularning ish faoliyatini yanada tezlashtiradi.

## Yuridik faoliyatda bulutli texnologiyalarning kamchiliklari.

Bulutli texnologiyalarning barcha sohada afzalliklari bo‘lgani kabi kamchiliklari ham mavjud. Barcha ishda ham o‘ziga tegishli bo‘gan kamchiliklari bo‘ladi, ammo afzal tomonlari ustun bo‘lsa uni amalda qo‘llash tavsiya etiladi. Albatta bulutli texnologiyalarning afzallik tomonlari yuqori bo‘lishiga qaramay uning kamchiliklariga ham nazar tashlasak.

**Ma‘lumotlar va hujjatlarning xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar.** Bulutli hisoblash ta‘minotchilari yuqori darajada xavfsizlikni ta‘minlagan bo‘lsada, ba‘zida ma‘lumotlarning maxfiylik darajasi insonlarni xavotirga soladi. Yuridik firmalar uchun mijozlarning maxfiy ma‘lumotlarini saqlash muhim ahamiyatga ega, chunki ularning ma‘lumotlariga ruxsatsiz kirish javobgarlikka sabab bo‘ladi va bu insonlarning bulutli hisoblashga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi.

“Even though the United States is trying to enforce the protection of information privacy, especially within cyberspace, there is one commonly criticized problem hidden in “The Stored Communications Act”, which is codified in chapter 121 from section 2071 to 2012 in U.S. Code. According to such legislation, no matter whether it is an electronic communication service provider, this service provider may voluntarily disclose customers’ information content under certain circumstances.”<sup>4</sup> Bu maqola shuni ta‘kidlayaptiki, AQSH ma‘lumotlarning xavfsiz bo‘lishiga harakat qilsada, “Saqlangan aloqalar to‘g‘risida”gi Qonunning 121-bobida: “U elektron aloqa xizmati provayderi bo‘ladimi, yo‘qmi, mijozlarning ma‘lumotlarni ixtiyoriy ravishda oshkor qilishi mumkin.”- deb aytib o‘tilgan. Foydalanuvchi ma‘lumotlarining holati tufayli ta‘minotchilar tomonidan boshqariladigan joylarda himoyalangan; shu tufayli, kompaniya ma‘lumotlarni manzilga yetib borishi uchun turli joylar bo‘ylab harakatlanadi. Bu kompyuterda jinoyatlar sodir etilishi yoki ba‘zi turdagi ma‘lumotlar boshqa yo‘nalishlarga yetkazilishi uchun yaxshi vosita turidir, ya‘ni aynan xavfsizlik masalasining

<sup>4</sup> Fa-Chang Cheng and Wen-Hsing Lai. The impact of cloud computing technology on legal infrastructure within internet- focusing on the protection of information privacy.// Procidea Engineering.-Kaohsiung City 811: Taiwan. No.2, 2012.-P-246.



muammosi uchun jinoyatlar sodir etilishining xavfi mavjud. Shunday bo'lishiga qaramasdan, O'zbekiston hududa har doim inson manfaatlari ustun hisoblanadi va bulutli texnologiyalardan foydalanish yuristlarning ish faoliyatini yanada takomillashtiradi. "Xavfsizlik kamdan-kam hollarda, lekin ko'p hollarda Cloudzaxira nusxalarini yaratadi, shuning uchun tashvishlanishga hojat yo'q."<sup>5</sup>

**Internet aloqasiga bog'liqlik.** Bulutli texnologiyalardan foydalanish internet tarmoqlariga ulanishni talab qiladi, agarda aloqa uzilib qolsa bu yuristlarning ish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, O'zbekistonda internet tezligi boshqa davlatlarga nisbatan ancha sekin va ko'plab insonlar aynan shu muammodan aziyat chekishadi. Agar yuridik firma internetdagi uzilishlarni boshdan kechirsa, muhim fayllar, hujjatlariga kirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi va xavfsizlik choralari buzishi mumkin. Biroq, 5G tarmoq orqali ulanish texnologiyadagi asosiy jihatlarni ochib berib, ishni tezroq va ishonchli qilish orqali ushbu xavfni kamaytiradi.

**Ishonchning pasayishi.** Ushbu turdagi holat ko'p vaziyatlarda foydalanuvchini shubha ostiga soladi. Ayrim vaziyatlarda esa ijtimoiy adolat prinsipiga rioya qilish uchun tirik mavjudodning o'zi amalga oshirishi darkor, chunki ular rahmdil bo'lishadi. Ma'lumotni yetkazib beruvchilarning xatti-harakatlari tinglovchi tomonidan ya'ni yurist tomonidan eshitilmasa, unga nisbatan adolatsiz hukm bo'lib qolishi mumkin. Buning oqibatida insonlarning ishonch tuyg'usi so'nishiga olib keladi.

**Xarajatlar bilan bog'liq muammolar.** Garchi, dastlab bulutli xizmatlar arzon ko'rinsada, uzoq vaqt davomida ma'lumotlar hajmi kengayib, xarajatlar ko'payib ketishi ehtimoldan holi emas, chunki bulutli texnologiyalarning saqlash hajmi cheklangan, shu sababli ko'proq ma'lumotlarni qamrab olish qimmatga tushishi ehtimoldan holi emas. Shunga qaramay, xotiradan foydalanishni diqqat bilan kuzatib borish, saqlash harajatlarini optimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish va ortiqcha ma'lumotlarni kamaytirish kabi usulardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yuridik firmalar uchun bulutga asoslangan xizmatlarda asosiy e'tiborli jihatidir. Biroq, hujjatlarni saqlashning boshqa usullaridan ko'ra ancha manfaatliroq usul hisoblanadi.

**O'zgaruvchanlik.** Bulutli ilovalar 'z resurslarini doimiy asosda o'zgartirib turadilar va u yangilanib boradi. Shu bois, har doim nazoratda bo'lib turish lozim, ayniqsa yuridik faoliyat bilan shug'ullanuvchilar jismoniy va yuridik shaxlarga tegishli ma'lumotlari uchun javobgar hisoblanishadi va ular bulutli hisoblash ilovasi yangilanayotganda boshqa bulutli hisoblash ilovaga ko'chirish maqsadga muvofiq. Buni amalga oshirish uchun esa xodimlarning texnologiyalarga bo'lgan tajribasi yuqori bo'lishi shart.

<sup>5</sup> Hamrayeva.D.E. Bulutli texnologiyalarning xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari.// Science promotion. No.8, 2024.-232-b.



## Muhokamalar va O'zbekistonda ularning amalda qo'llanishi.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi endi zamonaviy hayotga moslashish jarayonida va shunga qaramay, yuridik faoliyatda bulutli texnologiyalarni qo'llash bosqichi asta-sekinlik bilan kirib kelyapti. To'g'ri, ma'lumotlarni va yuridik hujjatlarni saqlash uchun bir qator saydlar mavjud: Lex.uz, Norma.uz, My gov.uz va shu kabilarni misol qilishimiz mumkin. Biroq, chet davlatlarning yuridik sohada bulutli texnologiyarning faoliyati ancha yuqori ekanligi sir emas. Masalan: lexisnexsis.com- bu platforma lex.uz kabi ma'lumotlar bazasi, clio.com- yuridik firmalarning ish jarajonlarini avtomatlashtiradi, ContractPodAi: bu texnologiya sun'iy intellekt yordamida shartnomalarni boshqaradi va tahlil qiladi, ya'ni fuqarolarning shartnomalarini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tahlil qiladi, iManage: bu texnologiya yuridik firmalar bilan bilimlar va fikrlar almashinuvini yaxshilashga yordam beradi va Everlaw: sud jarayonlarini boshqarish va ularni avtomatlashtirish imkonini beradi. Afsuski, shu kabi bulutli texnologiyalar hozircha O'zbekistonda mavjud emas, ammo kelajakda albatta! Chunki "O'zbekiston Respublikasi 2030" strategiyasining 57-maqsadida: "IT-parkda xorijiy kompaniyalar uchun "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi"ni tashkil qilish orqali xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini sonini 1000 taga yetkazish." Va "Elektron tijorat tog'risida"gi Qonunning 3-moddasi 1-bandi:"Raqamli mahsulotlar — intellektual mulk obyektlarining elektron ko'chirma nusxalari (raqamli tovarlar), shuningdek elektron axborot muhitida moddiy natijaga ega bo'lmagan muayyan harakatlarni bajarish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish, shu jumladan "bulutli texnologiyalar"ni (raqamli xizmatlarni) olishga hamda ularga obuna bo'lishga doir xizmatlar;" misolidagi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari asosida bulutli texnologiyarni keng sohaga targ'ib qilish maqsad qilingan.

Men shaxsan fuqaro sifatida va bo'lajak yurist sifatida yuridik faoliyatda bulutli texnologiyadan foydanishni yanada rivojlantirish uchun shuni taklif qila olamanki, yurtimiz mustaqil bo'lganidan hozirga qadar sud jarayonlari murakkab hisoblanadi, ya'ni har bir guvohning, ayblanuvchining, jabrlanuvchining nutqi juda ham muhim, shu sababli sudya sud jarayonida ularning so'zlarini yozib olishni yosh yuridik kadrlarga topshirishadi (yoki shaxsiy telefonlarida yozib olishadi), biroq ular yuridik tajribasi yetarlicha bo'lmagani boisi asosiy isbot-dalil hisoblanadigan so'zlar qaysi ekanligini bilmay, qisqartmalar orqali yozma shaklda yozib olishadi va buni sudya tushunishga qiynalgani sababli, qaror chiqarishda xatoga yo'l qo'yish oqibatlari ham yo'q emas. Shuni aytmoqchimanki, agar sud jarayonidagi nutq so'zlagan insonlarning ovozini audio yozuv orqali elektron shaklda xavfsizlik saqlangan holatda platformada saqlansa, sudya qaror chiqarishda qiynalmaydi va apellatsiya, norozilik oqibatlari kamayadi degan umiddaman. Chunki shaxsiy telefonda audio orqali yozib olingan nutq xavfsiz hisoblanmaydi,





shuning uchun alohida platforma yaratib, maxfiylik saqlangan holda nutq jarayonini yozib olish huquqiy jihatdan asoslidir.

**Qonunchilikka taklif.** “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorining loyiha ro‘yxati 34-bandiga ko‘ra: “Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organiga murojaat kelib tushganda, murojaat holatini onlayn kuzatish imkoniyatini beruvchi elektron tizim yaratish.”aytib o‘tilgan, ammo nafaqat ulaning huquqlarini himoya qilish, balki majburiyatlarini bajarishini kuzatish uchun ham elektron tizim yaratish kerak. Ya‘ni “Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish va **majburiyatlarni bajarish uchun** maxsus vakolat berilgan davlat organiga murojaat kelib tushganda, murojaat holatini onlayn kuzatish imkoniyatini beruvchi elektron tizim yaratish.” Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida arxivlar ishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorining 2-bobi 2-qismiga muvofiq: “Arxiv — arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi davlat yoki nodavlat muassasasi, idoraviy arxiv;”-deb aytib o‘tilgan biroq, arxiv tushunchasining o‘rniga bulutli texnologiyalar haqida aytib o‘tilishi ancha samaraliroq usuldir, chunki komyuterlarning xotirasida saqlangandan ko‘ra bulutli hisoblashda saqlansa, xotiradan o‘chib ketish hollari, komyuterning nosoz darajaga kelib qolganda ma‘lumotlar saqlanmaslik holatlari muammo bo‘lmas edi.

**Xulosa.** Yuridik faoliyatda bulutli texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos afzalliklariga ega bo‘lib, zamonaviy yuridik amaliyotning ajralmas bo‘lagiga aylanib bormoqda. Bu texnologiyalar yuridik faoliyatni sezilarli darajada samaraliroq bo‘lishiga xizmat qilib, xarajatlarni kamaytirishda, mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilashda o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Ularning o‘ziga yarasha xavfsizlik, internet bilan aloqa kabi muammolarni hal qilish uchun chora ko‘rish muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda bulutli texnologiyalar yuridik faoliyatda keng miqyosda qo‘llanishi kutilmoqda va ularning rivojlanishi bilan afzalliklari ortib, kamchiliklari kamayish ehtimoli bor. Shuning uchun undan barcha sohalarda keng foydalanish samaraliroq usuldir.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Delov.T.E. Bulutli texnologiyalar.-Toshkent: O'zbekiston, 2020.-217 b
2. Delov.T.E. Bulutli texnologiyalar.- Toshkent: O'zbekiston, 2020.- 217 b
3. Sether Ayob. Cloud computing benefits.// SSRN electronic journal.No3. - 2016.- P-13.
4. Fa-Chang Cheng and Wen-Hsing Lai. The impact of cloud computing technology on legal infrastructure within internet- focusing on the protection of information privacy.// Procidea Engineering.-Kaohsiung City 811: Taiwan. No.2, 2012.-P-246.
5. Hamrayeva.D.E. Bulutli texnologiyalarning xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari.// Science promotion. No.8, 2024.-232-b.
6. “ O'zbekiston Respublikasi 2030” strategiyasi. PF-158-son.2023. <https://lex.uz>
7. “ Elektron tijorat to'g'risida”gi Qonun. O'QR-792-son.2022. <https://lex.uz>
8. “ O'zbekiston Respublikasi arxiv ishini takomillashtirish to'g'risida”gi 101-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori <https://lex.uz>